Seysmologiya rivoji yo’lidagi yangi tadqiqotlar

Bugun Fanlar akademiyasi Fizika-matematika va texnika fanlari bo‘limi ilmiy-texnik kengashida akademik S.Baxramov rahbarligida “Seysmik barqarorlik” yo‘nalishi bo‘yicha Fanlar akademiyasi institutlari tomonidan taklif etilayotgan loyihalar muhokamasi bo‘lib o‘tdi. Kengashda ushbu fan sohasi akademiklari Q.Abdullabekov, M.Mirsaidov va yetakchi olimlari ishtirok etishdi. Unda 2030-yilgacha Fanlar akademiyasi tizimi tashkilotlarida amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlar dasturi muhokama qilindi. Tadbirda kuchli zilzilalarni prognoz qilish usullarini innovatsion tahlil qilish, yer qobig‘idagi geodinamik jarayonlarni aniqlashda zamonoviy texnologiyalarni tadbiq etish, grunt qatlamlarini seysmik tebranishlarga mustahkamligini o‘rganish, seysmik xatarni baholash va boshqarishning ilmiy asoslari, zilzilabardosh qurilish masalalari va boshqa bir qator dolzarb mavzularga bag‘ishlangan 15 ta loyihalar taqdimotlari bo‘lib o‘tdi. Saralab olingan loyihalar Fanlar akademiyasining “Seysmik barqarorlik” dasturiga kiritilishi kelishib olindi.